

“Kelajak soati” darsining 9-11-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi

27-mavzu: “Yil boshi – Navro‘z”

Dars maqsadi: Umumiy maqsad:

O‘quvchilarga Navro‘z bayramining tarixiy ildizlari, ma’naviy-axloqiy ahamiyati, qadriyat sifatidagi o‘rni haqida chuqur tushuncha berish; milliy an’analarni asrab-avaylashga ongli munosabatni shakllantirish.

Aniq maqsadlar:

- Navro‘zning kelib chiqishi, kalendar bilan bog‘liqligi, “yil boshi” tushunchasini tushuntirish.
- Navro‘z udumlari (sumalak, sayilgohlar, xalq o‘yinlari, bag‘rikenglik ruhiyati) haqida bilim berish.
- Milliy qadriyatlar zamonaviy jamiyatda qanday ahamiyat kasb etishini muhokama qilish.
- Jamoada ishlash, fikr bildirish, muhokama yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kutiladigan natijalar

Aqliy va tushunchaviy darajada:

- Navro‘zning tarixi, ma’naviy asoslari, an’analari haqida mantiqiy tushunchaga ega bo‘ladi.
- “Yil boshi – Navro‘z”, “ezgulik bayrami” kabi tushunchalarni sharhlay oladi.

Hissiy va qadriy yondashuvda:

- Milliy qadriyatlarga hurmat, jamoada birdamlik, tabiatga mehr kabi fazilatlar shakllanadi.
- Bayramning inson ruhiyatida uyg‘otadigan iliqlik, ijobiy hislar haqida fikr bildiradi.

Amaliy ko‘nikmalarda:

- Guruhda ishlash, mavzuga oid taqdimot yoki plakat yasash, qisqa sahna ko‘rinishlari yaratish.
- Navro‘z udumlarining zamonaviy talqinlarini taklif qilish.

Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- O‘quvchilarda bag‘rikenglik, madaniy merosga sodiqlik, hamkorlikda ishlash madaniyati rivojlanadi.
- Yaxshi niyat, mehr-muruvvat kabi tushunchalarning ijtimoiy ahamiyatini anglaydi.

Metapredmet yondashuv:

- **Tarix** – Navro‘zning kelib chiqishi, qadimgi Sharq kalendarlari.
- **Biologiya/Ekologiya** – Bahor fasli, tabiatning uyg‘onish jarayoni.
- **Tarbiya va Ma’naviyat** – qadriyatlar, mehr-oqibat, ezgulik tushunchalari.
- **San’at** – Navro‘z o‘yinlari, raqslar, milliy liboslar, rangtasvir.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.

www.milliytarbiya.uz

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalardan nazariy tushunchalar va hissiyotlarni ifodalashda foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to‘plami:

- videomateriallar;
- tarixiy hikoyalar;
- taqdimot.

I. KIRISH – MOTIVATSION QISM(10 daqiqa)

O‘qituvchi: Salom, aziz o‘quvchilar. Bugungi “Kelajak soati” darsimiz yangi yil bayramiga bag‘ishlanadi.

O‘qituvchi hayron qarab turgan o‘quvchilarning qiziqishini yanada orttirish uchun doskaga savol yozadi:

Tabiatning yangi yili qachon boshlanadi?

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, tasavvur qiling: agar sizga bir yildagi 365 kundan bir kunni tanlash topshirig‘i berilsa, qaysi kunni “yangi yil” deb belgilagan bo‘lardingiz?

Bir necha o‘quvchi fikr bildiradi.

O‘quvchilar:

- 1-yanvar.
- Men tug‘ilgan kun!
- O‘quv yilining 1-kuni va hk.

O‘qituvchi: Nega aynan 1-yanvar? To‘g‘ri, kalendarda shunday.

O‘qituvchi doskaga yozadi:

KALENDAR YANGI YILI – 1-YANVAR

O‘qituvchi: Lekin insoniyat tarixida odamlar kalendar chiqishidan minglab yillar oldin ham yashagan. Ular yangi yilni qanday aniqlagan deb o‘ylaysiz?

O‘quvchilar turli fikr bildiradi:

- Fasllarga qarab;
- Tabiatga qarab;
- Quyoshga qarab.

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Qadim zamonlarda odamlar vaqtni tabiat orqali o‘lchagan. Shu sababli ular uchun yangi yil kalendardagi raqam emas, balki hayot yangilanadigan kun bo‘lgan.

O‘qituvchi doskaga ikkinchi yozuvni qo‘shadi:

TABIATNING YANGI YILI – 21-MART

O‘qituvchi: Demak, savol tug‘iladi: nega aynan 21-mart? Chunki aynan shu kuni kun va tun tenglashadi. Bu – tabiat muvozanatga kelgan nuqta. Shu kundan boshlab kunlar uzayadi, tabiat uyg‘onadi, o‘simliklar o‘sadi, hayot yangidan boshlanadi. Qadim ajdodlarimiz bu hodisani kuzatib, 21-martni yangi yil deb belgilaganlar.

Demak, 1-yanvar kalendarning yangi yili bo‘lsa, Navro‘z – tabiatning yangi yili.

Tasavvur qiling: qish tugadi. Muzlar eridi, yer yumshadi. Daraxtlar kurtak chiqardi. Dalalarda ish boshlandi. Odamlar hovlilarini tozalaydi. Arazlar unutiladi. Qozonlarda sumalak qaynaydi. Bu shunchaki bayrammi?

Yo‘q. Bu – jamiyat hayotida yangi davr boshlanishidir.

Shuning uchun ham Navro‘z ming yillar davomida xalqimiz hayotida yashab kelmoqda. Albatta, sho‘ro davrida bu bayram taqiqlandi, xalqning xotirasidan o‘chirishga urinishlar bo‘ldi. Lekin hech kim uni yo‘q qila olmadi. Odamlar baribir bir-birini Navro‘z bilan tabrikladi, sumalak pishirdi, sayillar qildi, xalq o‘z qadriyatlarini saqlab qoldi.

Mustaqillik yillarida esa Navro‘z bayrami davlatimiz tomonidan milliy qadriyat sifatida yana tiklandi va keng nishonlana boshladi. Bugun Navro‘z yurtimizda katta umumxalq sayillari, madaniy tadbirlar, xayriya aksiyalari, ko‘chat ekish va xalq an‘analarini tiklash bilan o‘tadigan ulkan bayramga aylandi. Yaqinda 2026-yilgi Navro‘z bayramini ham yuksak saviyada nishonlash haqida Prezidentimiz qaror imzoladilar.

Hozir biz Navro‘z bayramining davlat tomonidan muhofaza qilinishi va qadriyat sifatida ulug‘lanishini aks ettiruvchi qisqa videoni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

“Navro‘zni ulug‘lash – insonni ulug‘lashdir!”

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/466

O‘qituvchi: Videoda ko‘rib turibmizki, Navro‘z faqat sayil emas. Bu – yangilanish, birlik va yaxshi niyatlar bayrami.

Endi sizlarga bir savol: Navro‘z nima uchun ming yillar o‘tsa ham yo‘qolib ketmay, yashab kelmoqda?

O‘quvchilar fikr bildiradi.

O‘qituvchi: Navro‘z insoniyat uchun eng muhim qadriyatlarni ifodalaydi. Ya’ni tabiatga hurmatni, yangilanishni, birdamlik va hamjihatlikni, tinchlik va barakani, yaxshilik va umidni.

Ko‘rinadiki, bugun biz Navro‘zni faqat bayram sifatida emas, balki yil boshi, tarixiy hodisa, madaniy meros, inson va tabiat uyg‘unligi va milliy qadriyat sifatida o‘rganamiz.

Qani, boshladik.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O'qituvchi: Demak, biz Navro'zning tabiat bilan bog'liq yangi yil ekanini tushuna boshladik. Lekin bu bayram qayerdan paydo bo'lgan? Uning ildizlari qanchalik chuqur? Navro'z shunchaki xalq saylimi yoki undan ham katta ma'noga egami?

Bu savollarga javob topish uchun, avvalo, mutaxassislarning fikrini eshitib ko'ramiz. Hozir sizlarga folklorshunos-etnograf olim Shomirza Turdimov Navro'z haqida qiziqarli faktlarni gapirib beradilar. Marhamat, videoni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Navro'z bilan bog'liq 4 qiziqarli fakt – Shomirza Turdimov

<https://youtu.be/g3Yeq3-kdc>

O'qituvchi: Xo'sh, videodan qanday faktlarni eslab qoldingiz?

O'quvchilar javob beradi.

O'qituvchi: Olimlarning fikricha, Navro'zning ildizlari kamida 3000-3500 yil avvalgi dehqonchilik sivilizatsiyalariga borib taqaladi. Qadim zamonlarda inson hayoti to'liq tabiatga bog'liq bo'lgan. Dehqonlar quyoshning harakatini, fasllar almashuvini, yerning qachon uyg'onishini juda diqqat bilan kuzatgan.

Ular har yili 21-mart kuni tun va kun tenglashishini uzoq kuzatuvlar natijasida anglaganlar. Aynan shu kundan boshlab Yer Quyoshga yaqinlasha boshlaydi, yerga iliqlik ko'proq tushadi, o'simliklar uyg'onadi. Bu esa yangi davr boshlanishining belgisi hisoblangan. Shuning uchun qadimda aynan shu kun yil boshi sifatida qabul qilingan.

Navro'z uzoq tarixga borib taqaladigan qadimiy bayram dedik. Kelinglar, hozir Navro'z tarixiga bag'ishlangan videorolikni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Navro'z tarixi

<https://youtu.be/r3vj-JMNwxk>

O'qituvchi: Navro'z tarixini tushuntirishda tadqiqotchilar odatda uch xil yondashuvni aytib o'tadilar: afsonaviy, tarixiy va madaniy talqin.

Afsonaviy talqin

Rivoyatlarda Navro‘z “nur zulmatni yenggan kun”, “ezgulik g‘alaba qilgan vaqt” sifatida tasvirlanadi. Mashhur mutafakkir Alisher Navoiy o‘zining “Tarixi mulki ajam” asarida ham Navro‘z haqida qiziqarli ma’lumot beradi.

Navoiyning yozishicha, afsonaviy shoh Jamshid yangi saroy qurib, odamlarni bir joyga yig‘adi va aynan quyosh bahor tengkunligiga kelgan kuni ulkan tantana o‘tkazadi. Shu kundan boshlab u kun Navro‘z, ya’ni “yangi kun” deb atalgan.

Demak, xalq tafakkurida Navro‘z avvalo ezgulik va yorug‘lik bayrami sifatida shakllangan.

Tarixiy talqin

Tarixiy manbalarga qarasak, Navro‘z faqat afsona emas, balki astronomik hodisaga asoslangan bayram hamdir. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari – Eron, So‘g‘d, Baqtriya va boshqa hududlarda yashagan xalqlar quyosh harakatini kuzatib kalendar tuzgan. Shu kuzatuvlarga ko‘ra, 21-mart bahor tengkunligi sifatida alohida ahamiyat kasb etgan.

Bu kun dehqonchilik yilining boshlanishi bo‘lgan: yer haydash, urug‘ sepish, ekin ekish aynan shu davrda boshlanadi.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da ham bahor ezgulikning g‘alabasi, tartib va hayotning qayta tiklanishi sifatida tasvirlangan.

Demak, Navro‘z tasodifiy paydo bo‘lmagan. U tabiat qonuniyatiga asoslangan bayram.

Madaniy talqin

Navro‘zning yana bir muhim jihati shundaki, u ming yillar davomida xalqlarning kundalik hayotiga chuqur singib ketgan. Turli hududlarda bu bayram turlicha nom bilan atalgan: kimdir uni “yangi yil”, kimdir “bahor to‘yi”, kimdir esa “poklanish kuni” deb atagan. Lekin udumlar juda o‘xshash bo‘lgan. Ya’ni uylarni tozalash, daraxt ekish, bir-birini tabriklash, arazlarni unutish, dasturxon yozish kabilar Navro‘zni nishonlaydigan barcha xalqlarda kuzatilgan.

Bu esa Navro‘z faqat bir xalqning emas, balki ko‘plab xalqlar madaniyatida yashaganini ko‘rsatadi.

O‘qituvchi Navro‘z xaritasi ekranga chiqaradi.



O'qituvchi: Mana bu xaritaga qarang. Navro'z Markaziy Osiyo davlatlari, shuningdek, Eron, Ozarbayjon, Afg'oniston, Turkiyaning ayrim hududlari, Hindiston, Pokistonning ba'zi mintaqalari va boshqa joylarda ham nishonlanadi. Shuning uchun Navro'z bugungi kunda xalqaro bayram hisoblanadi.

2009-yilda Navro'z UNESCO Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Bu Navro'zning nafaqat milliy, balki umumbashariy madaniy meros ekanini anglatadi. 2010-yilda esa BMT 21-martni Xalqaro Navro'z kuni deb e'lon qilgan.

Nega sizningcha, turli xalqlar ming yillar davomida bu bayramni o'z qadriyati sifatida saqlab qolgan?

2-3 o'quvchi fikr bildiradi.

Navro'z udumlari va ularning ma'nosi

O'qituvchi: Navro'z deganida ko'pchilikning ko'z oldiga darrov sumalak, sayil, ko'k somsa, xalq o'yinlari keladi. Lekin bular shunchaki odat emas, balki har birining o'z ramziy ma'nosi bor.

Sumalak – birlik va sabr ramzi

O'qituvchi: Sumalak Navro'zning eng mashhur taomlaridan biri. Lekin uning qadri faqat taom sifatida emas, balki pishirish jarayonida ko'rinadi.

Sumalak ko'p soat davomida qaynatiladi. Odamlar birga yig'ilib qozon kovlaydi, qo'shiq aytadi, tilaklar qiladi. Bu jarayon uchta muhim g'oyani ifodalaydi:

1. **Birlik** – ko‘pchilik bo‘lib bajarilgan ish barakali bo‘ladi.
2. **Sabr** – yaxshi natija sabr bilan keladi.
3. **Baraka** – bahorning mo‘l-ko‘lligi so‘raladi.

Hozir sizlarga Navro‘z taomlari haqida yana bir qiziqarli videoni taqdim etamiz.

Vizual kontent

So‘qoqdagi ko‘k somsa hikoyasi

<https://youtu.be/tW3-DqhZYfU>

O‘qituvchi: Ko‘rib turganingizdek, bahor taomlarining aksariyati ko‘katlardan tayyorlanadi. Bu esa Navro‘zning tabiat bilan uzviy bog‘liqligini yana bir bor ko‘rsatadi.

Poklanish udumi

Navro‘z oldidan uylar tozalanadi, hovlilar saranjom qilinadi. Bu faqat tozalik emas.

Xalqimizda shunday gap bor: “Yilni qanday boshlasang, shunday davom etadi”. Demak, yangi yilni toza uy, toza niyat va toza fikr bilan boshlash muhim deb hisoblangan.

Navro‘z sayillari

Bayram kunlari xalq sayillari o‘tkaziladi. Kurash, dorbozlar chiqishi, arqon tortish, xalq qo‘shiqlari sayillarning ajralmas qismidir. Buning asosiy maqsadi odamlarni bir joyga to‘plash, quvonch ulashish va jamiyatni birlashtirishdan iborat.

Shuning uchun ham Navro‘z ming yillar davomida yashab kelmoqda va bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, bugungi mashg‘ulot davomida biz Navro‘zni oddiy bayram sifatida emas, balki ming yillar davomida shakllangan tarixiy, madaniy va ma‘naviy hodisa sifatida ko‘rib chiqdik.

Navro‘zning eng muhim sabog‘i shundaki, yangilanish faqat tabiatda bo‘lib qolmasligi kerak.

Bahorda yer uyg‘onadi. Daraxtlar kurtak chiqaradi. Maysalar ko‘karadi. Demak, inson ham o‘z hayotida nimanidir yangilashi kerak.

Sizningcha, inson Navro‘zdan boshlab nimalarni o‘zgartirishi mumkin?

O‘quvchilar turli javob beradi:

- odatlarini;
- kun tartibini;
- maqsadlarini;
- munosabatlarini;
- sport bilan shug‘ullanishni.

O‘qituvchi: Juda to‘g‘ri. Navro‘z – bu faqat sayil yoki dasturxon emas. Bu o‘z ustida ishlash uchun yangi imkoniyat.

Bayram bizga bir haqiqatni eslatadi: inson har yili, har bahorda o‘zini yangilab borishi kerak.

Shuning uchun bugungi darsni kichik bir Navro‘z chellenji bilan yakunlamoqchiman. Kelasi mashg‘ulotgacha har biringiz quyidagi uch vazifadan kamida bittasini bajarib kelasiz.

1. Fikr chellenji

“Navro‘z menga nimani eslatadi?” mavzusida 6-8 gapdan iborat qisqa esse yozib keling. Unda siz uchun Navro‘z nimani anglatishini ifodalang.

2. Tadqiqot chellenji

Navro‘z qaysi davlatlarda nishonlanishini aniqlab, kichik **Navro‘z xaritasi** tayyorlang. Unda kamida 5 ta mamlakatni ko‘rsating.

3. Oila an‘analari chellenji

Uyda ota-ona yoki buvilaringizdan **“Bizning oilada Navro‘z qanday kutib olingan?”** degan savolga javob oling va kichik hikoya qilib yozib keling.

Keyingi darsda eng qiziqarli ishlardan Navro‘z burchagi tashkil qilamiz. Eng ijodiy ishlar alohida e’tirof etiladi.

Aziz o‘quvchilar, shuni unutmang: Navro‘z bizga tabiatning eng muhim sabog‘ini o‘rgatadi. Qish qanchalik sovuq bo‘lmasin, bahor baribir keladi. Qanchalik qiyinchilik bo‘lmasin, har doim yangilanish, yangidan boshlash mumkin.

Barchangizni yaqinlashib kelayotgan Navro‘z bayrami bilan samimiy tabriklayman. Navro‘zingiz muborak bo‘lsin!

Shu bilan darsimiz tugadi. Xayr, salomat bo‘linglar.